



SCIENCE BOX

O’zbek Xalq Musiqa Merosda O’quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi

To‘xtasin Ibodovich Rajabov

Buxoro davlat universiteti. San’atshunoslik fakulteti, Musiqa ta’limi
kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD)

O`ktam Rasulovich Ibodov

Buxoro davlat universiteti. San’atshunoslik fakulteti, Musiqa ta’limi
kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O’zbek xalq musiqa merosi o’quvchilarni vatanparvalik ruhida tarbiyalash vositasi o’quvchilarga musiqa madaniyati darslarida o’tiladigan O’zbek musiqa fol’klor qo’shiqlarini o’rgatish uchun qo’laniladigan usul va metodlar olib boriladigan dars jarayonining samaradorligi, o’quvchilariga xos xususiyatlarini belgilab olish, qo’shiqlardan foydalanilgan turli musiqiy janrlarni maqsadli o’rganish orqali o’quvchilarning ma’naviy-axloqiy hislari, qarashlari va ularga estetik tarbiya berish, musiqa darslarida qo’shiqlarni o’rgatish orqali o’quvchilarning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun amalga oshiriladigan ishlar o’quvchilarga bolalar fol’klor qo’shiqlarini o’rgatish orqali berilishi mumkin bo’lgan ta’lim-tarbiyaning ko’lami, darajasi, mazmuni va imkoniyatlarini aniqlab olish qay tarzda rejalashtirish lozimligi.

Kalit so’zlar: O’zbek musiqa fol’klor qo’shiqlari, ohang, ritim, usul, metod, ta’lim va estetik tarbiya, o’rgatish jarayoning samaradorligi, ma’naviy-axloqiy, musiqa madaniyati darsi.

Musiqa shunday san'at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsiyallari hissiyitlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqainsonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi xisoblanadi. Inson shaxsini shakilantiruvchi yetakchi omillardan biri- ta'lim tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy kismi sifatida go'zallikning moxiyati, estetik va axloqiy xissiyotlarning birligi san'atning xalqchinligi to'g'tisidagi ta'limotga suyanib o'quvchilarining obektiv dunyo xaqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va istedodini o'stridi xamda ularda ma'nnaviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odadta estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik xis-tuyg'u fikirlarni rivojlantirish, go'zalikni ko'rabilish va ulardan zavqlana olishdan ibrat, deb tushiniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni shodlik, kulfatni anglash va ko'ra bilishga o'rgatadi. Estetik tarbiya umum insoniy va milliy qadryatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, tarbiya inson ongiga his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, etiqodiga, dunyo qarashiga, xatti-xarakatiga, xulq-atvoriga, ta'sir o'tkazadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir.

Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikir va tuyg'ularni aks etiradi, xayot bosqichlarida isoniyatni to'lqilantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy moxiyati xam namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sugorilgan boladi, musiqada xayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezzilik va zulum, qudrat va zaiflik masalalar aks etgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'nnaviyat-yengilmas kuch" asarida, insonda yuksak ma'nnaviyatning shakllantirishni maktabgacha yoshda oila va umumta'lim maktabalarida amalga oshirish va bunda musiqa san'ati katta ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlab ko'rsatgan. Chunki, musiqa bolalarning ruhiyatiga va hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ularni quvontiradi, yaxshilikka va go'zalikka etaklaydi, nafosat olamiga olib kiradi. Eng muhimi ularda vatan tuyg'usini-vatanni sevish, ardoqlash, uni ozod va erkinligini shuningdek har bir qarich tuprog'ini e'zozlash, o'zini faqat va faqat shu ona zaminda to'la qonli xis etish tuyg'usini shakllantirisha muhim omil sanaladi. Shunday ekan, musiqa madaniyat darslarida bolalar qiziqishining yanada kuchayib borishi musiqa rahbari oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Negaki, musiqa o'qituvchilarini tomonidan tashkil etilgan musiqiy mashg'ulotlar bolalarni barkamol inson bo'lib etishishlariga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Insomning Vatanga, mehnatga, moddiy ne'matlarga, o'z oila a'zolari va atrofidagi boshqa kishilarga hamda o'ziga munosabatini tarbiyalash, bugungi ta'lim tarbiya tizimi oldiga qo'yilayotgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al-Farobi musiqaning shaxs kamoloti shakllanishiga ijobjiy ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musiqa) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatini yo'qtgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamolga yetmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. ... Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir.»
Atoqli

pedagog V.A. Suxomlinskiy ham musiqa san'ati ulkan tafakkur manbai, usiz bolaning aqliy rivojlanishiga erishib bo'lmasligini e'tirof etgan. Zotan, har bir musiqa asarida ijodkorning ma'lum g'oyasi yoki biror badiiy mazmun bo'ladi. Musiqaning mazmuni o'quvchining g'oyaviy emotsiyallari xissiyoti faol kechishi natijasida idrok etiladi. Shuning uchun to'g'ri tarbiyalangan musiqaviy-badiiy did musiqa asarining g'oyaviy va badiiy mazmunini chuqur anglashda katta rol o'ynaydi. Demak, ahloqiy va aqliy-g'oyaviy tarbiya badiiy tarbiyaning ichki mazmunidir. Bu vazifani amalga oshirishda xalq musiqasi va kompozitorlar asarlarning mohiyatini, ularning tuzilish jihatidan farqini, milliy xususiyatlarini hamda janr tuzilishlarini o'rganish zarur. Bunda atoqli san'atkorlar ijodi bilan tanishish, ular yashagan davrni bilish, ular yaratgan asarlarni musiqiy-pedagogik jihatdan tahlil etib o'rganish, mashhur asarlar taqdiri va

tarixi bilan tanishish muhim rol o'ynaydi.

Umum pedagogika nazariyasida axloqiy, estetik, ma'naviy va jismoniy tarbiya turlari qatorida vatanparvarlik tarbiyasi ham alohida o'rinn tutadi. Vatanparvarlikni inson shaxsida shakllantirmsandan barkamol avlod tarbiyasiga qo'yilayotgan talablarni to'liq deb bo'lmaydi. Vatanparvarlik tarbiyasini avvalo o'quvchilarining amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik tarbiyasiga oid xalq musiqa merosiga oid namunalar o'quv dasturlari va darsliklarga juda ko'plab kiritilgan bo'lib, u ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab o'quvchilarini vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ularning ongiga singdirib boriladi. Masalan, jamoa bo'lib kuylash uchun mo'ljallangan qo'shiqlar repertuaridan ona-Vatanga, boy tabiatimizga, xalqimiz mehnati va hayoti bilan bog'langan turli bayramlarga, ahloq-odobga keng o'rinn berilgan. Tanlangan qo'shiqlar xilma-xil janrda bo'lib, ular ko'proq milliy musiqamizdagi lirik qo'shiqlar, xazil-mutoiba tarzidagi qo'shiqlar, bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini o'ynash uchun mos keladigan kuy-qo'shiqlar, marsh va vals kuylarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, dasturga qardosh va chet el kompozitorlari asarlari, chet el xalqlarining qo'shiqlaridan namunalar kiritilgan. Bu qo'shiqlarning g'oyaviy, ahloqiy va estetik mazmunini o'quvchilarga yaxshiroq singdirish uchun mavzuga mos kirish, asar g'oyaviy-badiiy mazmuniga oid suhbat, savol – javoblar kabi usullardan ijodiy foydalaniladi. Berilgan mavzularni oson o'zlashtirish uchun ifodali o'qish, mavzu asosida rasmlar chizish, ularni tahlil qilish, eski ro'znama va oynomalardan mavzuga doir rasmlarni kesib yopishtirish kabi usullardan ham keng foydalanish tavsiya qilinadi.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avvalo, insonparvarlik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, do'stlik, birodarlik, poklik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Hozirda ta'kidlab o'tilgan fazilatlar bilan birgalikda vatanparvarlik tarbiyasini yoshlarda shakllantirish dolzarb vazifadir.

O'zbek milliy qo'shiqlarini maromiga yetkazib kuylash, tinglovchilarining yuragiga ta'sir qildirish - bir san'at, u san'atdan bahra ola bilish ham katta iste'dod bo'lib qoldi. Shuning uchun, keksa san'at ustalarimizni tinglay olish, ularni ardoqlash, e'zozlash, oqibatli bo'lishni yosh avlodga o'rgatish, biz o'qituvchilarga katta vazifa yuklaydi. O'qituvchi-ustozning mahorati o'z o'quvchisini har bir ishini bajarishga majbur etishida emas, balki uni o'z xoxishi-irodasi bilan tushunib, quvonch bilan bajarishiga ragbatlanirishidadir.

Ma'naviy tarbiyaning bir nechta jihatlari mavjud. Shuning bir qirrasiga ya'ni musiqiy ta'sir orqali yuksak insoniy xis-tuyg'ularni shakllantirish masalalariga ozgina to'xtalamiz. Asrlar osha yetib kelgan xalq hayotini ko'rsatuvchi qo'shiq va kuylar juda ko'p. Ular xis-xayajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatidan esda qoluvechi, ta'sirchan kuchga egadir. Ularni har bir inson uchun qimmatli ahamiyatga ega ekanligini allomalarimiz uqtirib kelganlar.

Farobiyning fikricha, musiqa kishini ruxlantirib, umumiy ma'naviy kamolotga yetishishida ijobjiy rol o'ynaydi. Shuningdek, uning salomatligiga foydasi borligini aytib o'tadi. Musiqa sadolar ta'sirida asab tartibga tushadi. Ibn Sino kuylarning harakatiga, uning ritm holati bilan tomir urishi mos ravishda kelishini ham hisobga olgan. Ohangni bola qalbiga estetik ta'siri haqida qimmatli fikrlarini aytadi. «Shaxsni rivojiantirish, tarbiyalash va shakllantirish, bu insonning aqliy va ma'naviy kamolga yetkazish jarayonidir.» Mahoratli musiqa o'qituvchisi ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

1. Sharq allomalarining musiqa va musiqiy tarbiyasiga bag'ishlangan asarlardan keng foydalanish;
2. Ijodkor keksa avlodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanib, ularning ishini davom ettiruvchilarni tayyorlash kerak;

Tarbiya uch narsaga extiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug olim Arastu. Ana shu g`oyalarga asoslangan holda, tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliv - ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o`quvchi, o`smir va yosh yigitning betakror va o`ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy - huquqiy va erkinligining e'tiborda tutilishi;
- milliylikning o`ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jaxon madaniyatining ilg`or tajribalariga asoslanish;
- o`quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli o`quvchilar yosh jihatlariga mos xayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko`ngilochar va shunga o`xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada o`quvchilar o`zлari xoxlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat xissini tushunib o`zlariga ishonchlari ortsin, ana o'shandagini ular chinvkam vatanparvarlar bo'lib yetishadilar.

Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasini amalga oshirish albatta ta'lim metodikasiga bevosita bog'liqdir. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa tarbiyasi metodikasi tarbiya muassasalarida nafosat, musiqashunoslik, fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa, nafosat, musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq.

Musiqa asarni ongli idrok etish, asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarini to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi.

Bobokalonlarimizdan Abu-Nasr Al Farobiyning ma'rifatparvarlik g'oyalar tizimida, bola shaxsini tarbiyalashda musiqa san'atining roli, maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy ma'rifiy qarashlarida ham musiqa shaxsning ma'naviy va jismoniy madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi. Bolada yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi degan g'oya ilgari suriladi. Alloma mashhur «Tibbiyat qonunlari» kitobida bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri- bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi- uxlatish uchun odat bo'lib kelgan musiqiy allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan ba'zan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'lgan deb yozgan edi. Shunday qilib, olimlar, mutafakkirlar musiqa nafaqat, insonga samarali ta'sir etuvchi vosita balki, o'z mohiyati, jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra alohida bir fan sifatida tadbiq etishga, davrlar o'tib ularni tor fikrlarini ta'lim- tarbiyada tadbiq etilib, ta'kidlaganidek, ommaviy xalq musiqa pedagogikasining vujudga kelishida asos bo'ladi.

Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxsni ma'naviy-axloqiy shu bilan birgalikda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi - yosh avlodni milliy musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan hamda umumbashariy musiqa merosimizni qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga etkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining

musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart -sharoitlar yaratib berish maktab musiqa ta'limi tarbiyasining asosiy vazifasidir.

Musiqa ta'lrim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Musiqa ta'lrim tarbiyasining konsepsiyasida, maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'lmini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng xuquqli fan hisoblanadi.

Bu esa, hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobjiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi.

Ikkinchidan musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari ya'nii «tili» bilan farq qiladi. Agar, badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriy san'at bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlaridan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalaniladi.

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobjiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dastur bir dars o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi, bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi kabi bosqichlar bir- biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki etakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki, bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib, ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan etakchi darajada ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubxasiz, musiqa tarbiya samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa, musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning axloqi madaniyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar dunyosi beg'ubor olam, eng tiniq tuyg'ular, shirin umidlar, qanotli orzular baxtiyor bolalikka, tinch yurt farzandlariga yarashadi. Bolalar qalbi tabiiy ravishda ezgulikka intilib, kattalardan mehr – muruvvat kutib yashaydi. Ularning ongi esa, doimo biror yangilikni bilishga, bu murakkab olam sirlarini tezroq egallahsha harakat qiladi. Odatda bolalar atrofda bo'layotgan voqeа - hodisalarga juda qiziquvchanlik bilan qaraydi va turli bilim va fikrlarni osonlik bilan qabul qilib ulardan chuqr ta'sirlanadi. Ya'ni, inson bolalik chog'idanoq kamolotga intilib yashaydi. Komil insonni yaratish, ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash, azal - azaldan xalqimizning eng ezgu orzusi bo'lib kelgan. Zamonamizdag'i ma'naviy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi musiqa madaniyati fani o'qituvchilari oldiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Shu jihatdan olganda o'zbek folklori, uning tarkibidagi bolalar folklori ham ham nihoyatda boy va turli janrlarga ega. Ularda xalqimizning maishiy turmushi, ko'p qirrali madaniyati, san'ati, ezgu niyatları, ozodlik, erkinlik, birodarlik, vatanparvarlik g'oyalari, ezgulik bilan yovuzlik orasidagi murosasiz kurash kabi xislatlar kuylanadi. Shuning uchun ham musiqa

darslarida o'quvchilarni folklor qo'shiqlari bilan tanishtirib borishda ham o'ziga xos pedagogik talablarga asoslanish lozim. O'quvchilarga to'gri kelgan folklor qo'shiqlarni, lapar, o'lan, yor-yor, termalarni o'rgataverish to'g'ri bo'lmaydi. Bu o'rinda ularni tanlab olish va repertuar tuzishning o'ziga xos metodikasi ishlab chiqilishi zarur. Bunda barcha pedagogik vazifalar maqsadga yo'naltirilgan holda borilishi va kutilgan samarani bermog'i lozim. Bolalar folklor qo'shiqlari orqali o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalash tizimini yaratish, bugungi kungacha to'plangan mavjud tajribalarni o'rganish, to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish hozirgi kunda eng muhim vazifalar jumlasiga kiradi.

АДАБИЁТЛАР.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 15-февральдаги Фармони. Lex.uz сайти.
2. Ражабов Т. И. Тематическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3. – С. 61-63.
3. Ражабов Т. И., Ибодов У. Р. Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).
4. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
5. Madrimov. B. Kh , Rajabov T. I. Nurullaev F.G. TEACHING BUKHARA CHILDREN FOLK SONGS IN MUSIC LESSONS AS AN ACTUAL PROBLEM. Skopus: Internatonal Journal of Psychosocial Rehabilitation 6049-6056 бет Vol. 24, Issue 04. 2020йил.ISSN: 1475-7192
6. Ражабов Т. И. Мактабда мусиқа таълимида фольклор қўшиқларининг ўрни. Тошкент давлат педагогика университети. Илмий-назарий ва методик журнал. Тошкент 2016 й. 19 апрель. 122-126 бетлар.
7. Ражабов Д. З., Ражабов Т. И. ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ ЛИРИКИ //Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. – 2018. – С. 207-212.
8. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне" тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
9. Rajabov T. I. UZLUKSIZ TALIMDA FOLKLOR QO'SHIQLARINI IJRO ETISHHIHG O'ZIGA XOS USLUBLARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.
10. Rajabov T. I. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 72-79.
11. Ibodovich R. T. THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF CHILDREN'S FOLK SONGS IN MUSIC CULTURE LESSONS. – 2021.
12. Ibodovich R. T. AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH NATIONAL VALUES (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA CHILDREN'S FOLKLORE).
13. Rajabov.T.I.Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL ISSN 2181-0842 VOLUME 2, ISSUE 11 NOVEMBER 2021 C.1094-1104.x
14. Ражабов Тухтасин. ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ Международная научно-практическая конференция Русский язык и литература в образовательном пространстве центрально-азиатского региона "Rus tili va adabiyoti Markaziy

Osiyo mantaqasining ta'lif makonida" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjumani Сборник научных трудов Ilmiy ishlari to'plami Бухара – 2021. с.269-272.

15. Ражабов Т. И. Мактаб мусиқа таълимида болалар фольклор қўшиқларини ўрганиш имкониятлари ва муаммолари. Таълим ва технология. Илмий-услубий мақолалар тўплами. II кисм. Тошкент 2016 й, 218-221 бет.
16. Ражабов Т. И .Умумий таълим мактаби ўқувчиларини миллий мусиқага қизиқтириш усуллари. Абу Райхон Беруний номидаги Тошкент давлат техника университети. Таълим тизимида ижтимоий гуманитар фанлар. Илмий-методолик ва илмий-услубий журнал. Тошкент-2016 й. 23 август, 115-118 бетлар.
17. Ражабов. Т. И. Халқ қўшиқларини ўрганиш жараёнида психологик хусусиятларни ҳисобга олиш. Таълим, фан ва инновация. Маънавий-маърифий, илмий-услубий журнал. Тошкент 2016-й. 4 сон, 56-58 бетлар.
18. Ражабов.Т. И.Мусиқага фидойи устоз. Бошлангич таълим. Тошкент, 2017- йил. Декабр
20. Ражабов.Т. И. Изучение узбекских фольклорных народных песен и их психологической влияние. Вестник института культуры детства Материалы Всероссийской научной конференции (с международным участием) Челябинск 2018 год 149-152стр выпуск 17.
21. Ibodov Uktam Rasulovich ROL KLASSICHESKOY MUZYKI V UROKAX MUZYKALNOY KULTURBI // Academy. 2021. №2 (65).
22. Ibodov Uktam Rasulovich SPOSOBY OBUCHENIYA MUZYKALNOY GRAMOTE NA UROKAX MUZYKALNOY KULTURBI // Nauka, texnika i obrazovanie. 2021. №2-1 (77).
23. Uktam Rasulovich Ibodov MUZYKALNIE FORMY NA OSNOVE INDIVIDUALNOY MODELI KOMPOZITSII // Scientific progress. 2021. №4.
24. Uktam Rasulovich Ibodov PRIMENENIYA OBNARUJENNIX SREDSTV I METODOV PO SFERE MUZYKI // Scientific progress. 2021. №4
25. Uktam Rasulovich Ibodov VEROYATNOSTNIE MODELI KANTRAPUNKTNIX FORM // Scientific progress. 2021. №4.
26. Uktam Rasulovich Ibodov NEUSTOYCHIVIE PERIODI V MUZYIKE // Scientific progress. 2021. №4.
27. Ibodov U. R. Instrumentalnaya muzika kak orudie psixologicheskogo vliyaniya na cheloveka.« //Aktualnye voprosy psixologii, pedagogiki, filosofii XXI veka. – 2020. – S. 244-248.
28. Ibodov O'ktam Rasulovich. (2021). HISTORY OF UZBEK MUSIC CULTURE. European Scholar Journal, 2(9), 57-58. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/1265>
29. Ibodov O'ktam Rasulovich. MUSIQA MADANIYATI DARSALARIDA XALQ QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISH. BUXORO MUSIQA FOLKLORINING TARIXIY- NAZARIY VA AMALIY MASALALARI mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 140-142 betlar.
30. Ibodov O'ktam Rasulovich. OBESPECHENIE NATSIONALNOGO NASLEDIYA V OBUCHENII PESNYAM BUXARSKOGO DETSKOGO FOLKLORA NA UROKAX MUZYKI. Vestnik nauki i obrazovaniya № 21(99) chast.2 . 2020. Страницы 55-58.
31. Ibodov O'ktam Rasulovich. O`qivchilarning musiqiy badiiy didini o`stirishga qo`yiladigan talablar. Pedagogik mahorat ilmiy - nazariy va metodik jurnal. Maxsus son 2021 yil, may 53-54 betlar